

Islomova Barno Umurovna

Jizzax politexnika instituti akademik litseyi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqning eng qadimiy ijodi namunasi bo‘lgan maqollar va ularning anglatgan ma‘nolari hamda ahamiyati haqida. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi bir-biriga mushtarak hisoblanadi, shu sababli o‘zbek va ozarbayjon xalqlarining maqollaridagi ma‘nolarining ham bir-biriga o‘xshashligi bayon etilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: xalq og‘zaki ijodi, maqol, matal. hayotiy tajriba, etik va estetik tuyg‘u, ibratli so‘z, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, hikmatli maqol, donishmandlar so‘zi, otalar so‘zi.

Har bir xalqning og‘zaki ijodi o‘ziga xos. Ularda xalqning tabiatiga mos fe‘l-atvorini, orzu-umidlari, urf-odat va an‘analarini ko‘rishimiz mumkin. Xalq og‘zaki ijodining bir qismi bo‘lmish maqollar asrlar davomida misqollab to‘plangan, ne-ne sinovlardan o‘tgan, insonlarga hamisha madad bo‘lib kelgan noyob xazinadir. **Maqol** — xalq og‘zaki ijodi janri bo‘lib qisqa va lo‘nda, obrazli va obrabsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma‘noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli xalqning og‘zaki ijodidir. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba‘zan ko‘p ma‘nolilik, majoziy ma‘nolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterli.

Bizga ma‘lumki, birinchi turkiy til grammatikasini ishlab chiqqan olim Mahmud Qoshg‘ariy "Devonu lug‘ot at-turk" asarini yaratish uchun barcha turkiy qabilalarni, ular yashaydigan shahar va qishloqlarni aylanib chiqqan. Safari davomida juda ko‘p tarixiy manbalarni o‘rgandi va hozirgi kungacha saqlanib qolishiga sababchi bo‘lgan olim sifatida tarixda qoldi. Mahmud Qoshg‘ariy turkiy qabilalarni aylanib chiqar ekan ularning tilini, adabiyotini chuqur o‘rgandi. O‘zining asarida turkiy so‘zlarni arab tilida izohlab beradi. So‘zlar izohida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, ya‘ni she‘r, maqol hamda matallardan foydalanadi. Tulku o‘z iniga urisa, ujuz bo‘lur» («Tulki o‘z uyasiga qarab ulisa qo‘tir bo‘ladi»). Mahmud Koshg‘ariy izohlashicha, bu maqol o‘z elini, urug‘ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi.

“Erik erni yag‘lig‘, ermagu bashi qanlig‘” (“Tirishqoqning labi yog‘lik, erinchoqning boshi qonlik”). Bu maqol yalqovlikni tashlashga, g‘ayrat bilan ishlashga

undab aytiladi. “Suv ichirmasga sut ber”. Bu maqol esa, senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil, degan ma’noda ishlatiladi. “O’kuz azaqi bo’lg’incha, buzag’u bashi bo’lsa yik” (“Ho’kizning oyog’i bo’lguncha, buzoqning boshi bo’lgan yaxshiroq”). U mustaqillik bo’ysunishdan yaxshi, degan ma’noda qo’llanadi. “Tavg’ach xanning to’rquasi telim, tenglamazib bichmas” (“Qoraxitoy xoqonining ipak gazmoli ko’p, lekin o’lchamay kesilmaydi”). Bu maqol ishni boshida puxta o’ylab qilishga undab, isrofgarchilikka qarshi aytilgan. “Uma kelsa, qut kelar” (“Mehmon kelsa, qut kelar”). Bunda mehmon kelsa, u bilan birga baraka, qut-baxt keladi, qo’noqni yaxshi qarshi oladilar, malol olmaydilar, degan fikr ilgari surilgan. “Qiz kishi savi yo’rig’li bo’lmas” (“Baxil odam obro’ topmaydi”). Insonlarni saxiy bo’lishga undab, baxillik qoralanishi aytilgan. . “Erdam bashi til” (“Odobning boshi til”), “Tilin tug’mishin tishin yazmas” (“Til bilan tug’ilganni, tish bilan yechib bo’lmas”) kabi maqollarda so’zlashish odobi, tildan ehtiyotkorlik bilan foydalanish g’oyalari ilgari surilgan.

Devondagi maqollarning ko’p qismini hozir ham ishlatamiz, ular zamonaviy turkiy tilimizga kirib kelgan. Maqollar ba’zan matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so’z, tanbeh, mashoyixlar so’zi, hikmatli maqol, donishmandlar so’zi, otalar so’zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir.

Maqol otalarimizning ibratli so’zlari ekan, ular nutqimizga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin, ta’sirchan qiladi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqida har doim hamroh bo’ladi. Kimki uni ko’p ishlatsa, uni insonlar diqqat bilan eshitadilar. Shu sababli maqollar badiiy adabiyotda, ya’ni she’r va dostonlarimizda, hikoya va romanlarimizda ham ko’p ishlatiladi. Hatto boshidan oxirigacha maqol bilan yozilgan asarlar ham bor. Masalan, Gulxaniy butun bir asarini “Zarbulmasal” deb nomlagan. Unda Yapaloqqush va Boyo’g’lining quda-andachilik mojarolari tasvirlangan bo’lib, ular tilidan 400 dan ortiq maqol keltiriladi. Tilimizdagi ko’p maqollarning hozirgi kunimizgacha saqlanib qolishida ham “Zarbulmasal” eng qimmatli manbadir.

Turkiy tillar oilasida 30 ga yaqin til mavjud. Ularning adabiyoti, tili bir-biriga juda yaqin. Biz buyuk ozarbayjon shoiri Fuzuliy she’rlarini tarjimasiz o’qib-o’rganamiz. Ozarbayjon tilida ham mazmunan ona tilimizga yaqin maqollar mavjud. Ular maqollarni “otalar so’zi” deb yuritishadi. Ozarbayjon maqollarida ham jaholat, hasad, xiyonat, ikkiyuzlamachilik, qo’rqoqlik qoralanadi, ilmga, san’atga, onaga muhabbat, do’stlikka sadoqatlik, insonparvarlik, aql-zakovat kabi go’zal fazilatlar ulug’lanadi hamda targ’ib qilinadi. “Elm aqilni chirog’idir” maqolini o’zbek tiliga tarjima qilsak, “Ilm-aqlning chirog’i”, “Savadsiz adam kor kimidir” esa, “Savodsiz odam ko’rga o’xshaydi”, degan ma’nolarda qo’llaniladi. “Bir aqilli bash, min bash saxlar” (“Bir aqilli bosh ming bosh qutqarar”), “Ushaq aziz, tarbiyasi ondan aziz” (“Bola aziz, bilimi undan azizdir”), “Aqil yashda deyil, bashdadir” (“Donolik yoshda emas, u boshida”), “Tək əldən səs çıxmaz” (“Bir qo’ldan ovoz chiqmaydi”), “Yüz ölç, bir biç”, (“Yuz o’lcha, bir o’r”) kabi.

Ozarbayjon maqollarida ham Vatanga muhabbat mavzusi muhim o‘rin tutadi. Masalan: "Vətənə gəldim, imana gəldim" ("Vatanga keldim, iymonga keldim"), Hər kəsə öz vətəni əzizdir ("Har kishiga o‘z Vatanni azizdir") va hokazo.

E’tibor beradigan bo‘lsak, har ikkala tildagi maqollar mazmunan yaqin. Ular faqat insonlarni tarbiyalaydi, yaxshilikka chorlaydi, to‘g‘ri xulosa chiqarishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek xalq maqollari, "Sharq nashriyoti", Toshkent-2005.
2. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik, Toshkent-2018.
3. Atalar sözü, toplayanı Ə. Hüseynzadə, Bakı, 1949,1956, 1981.
4. Atalar sözü, ağıln gözü, Bakı 1976.